

ESG PRINCIPLES - A DRIVER OF SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT AND BUSINESS TRANSFORMATION

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES

 <https://timeedu.uz/>

 24.10.2025 y.

2-TO'PLAM
2-MAXSUS SON/2025



“ESG tamoyillari – hududlarni barqaror rivojlantirish va biznesni transformatsiyalash drayveri” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar va tezislar to‘plami. -T.: TMII, 2025. – 752 bet.

Ushbu to‘plamda mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG tamoyillari asosida hududlar va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, yirik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida atrof-muhitni muhofaza qilish, raqamli iqtisodiyot sharoitida mavjud sanoat ishlab chiqarishni raqamli transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish orqali ishlab chiqarish sanoatini “drayver” sohaga aylantirish istiqbollari hamda barqaror iqtisodiy o‘rta ta’minlashning turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot materiallari keltirilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va keltirilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Сборник научных статей и тезисов Международной научно-практической конференции на тему «Принципы ESG – драйвер устойчивого развития регионов и трансформации бизнеса». – Т.: ТМII, 2025. – 752 с.

В сборнике представлены материалы научных исследований, посвященные устойчивому экономическому развитию нашей страны, диверсификации производства, адаптации к изменению климата и смягчению его последствий, повышению эффективности природопользования, обеспечению устойчивого развития регионов и промышленных предприятий на основе принципов ESG, внедрению эффективных экономических механизмов поддержки «зеленой» экономики в регионах, трансформации деятельности крупного и среднего бизнеса и повышению его конкурентоспособности, управлению отходами и развитию циклической экономики на промышленных предприятиях, охране окружающей среды на основе «зеленых» технологий, искусственному интеллекту, перспективам превращения обрабатывающей промышленности в «драйверную» отрасль за счет ускорения процессов цифровой трансформации действующего промышленного производства в условиях цифровой экономики, а также различным направлениям обеспечения устойчивого экономического роста.

Авторы сами несут ответственность за содержание представленных в сборнике материалов, достоверность содержащихся в нем статистических данных и представленных нормативно-правовых документов, а также за критические высказывания и предложения.

Tahrir hay’ati: i.f.n., dotsent Sh.K. Narbayev

i.f.n., professor I.S. Xotamov

i.f.d., professor Sh.I. Alibekov

i.f.d., professor V.P. Kuznetsov

i.f.f.d., dotsent N. Nosirova

i.f.f.d., dotsent D. Mamasoatov

assis. G. Axmedova

assis. A. Qudratxo‘jayev

Taqrizchilar: i.f.d., professor N.M. Maxmudov

i.f.d., professor A.A. Yadgarov

KIRISH SO‘ZI

ASSALOMU ALAYKUM, HURMATLI XALQARO ANJUMAN ISHTIROKCHILARI, AZIZ MEHMONLAR!

Sizlarni Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti hamda O‘zbekiston Ekologik Partiyasi Markaziy kengashi tomonidan tashkil etilayotgan mazkur Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda qutlashdan mamnunmiz!

Qadrli anjuman ishtirokchilari, bugun biz “ESG tamoyillari – hududlarni barqaror rivojlantirish va biznesni transformatsiyalash drayveri” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazmoqdamiz. Bugungi anjumanning asosiy maqsadi mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG tamoyillari asosida hududlar va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, yirik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini chiqur tahlil qilgan holda ilmiy amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan qaror va farmonlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu anjuman mavzusining naqadar dolzarbligini anglatadi. Yurtboshimiz tomonidan 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nomlanishi hamda ushbu yo‘nalishda qabul qilingan Davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda ma’lum ma’noda anjumanning ham o‘z hissasi bo‘ladi deb umid qilamiz.

Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

Ilmiy samaradorlik – anjumandan kutilayotgan ilmiy-amaliy natija mamlakatimiz hududlarida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, sanoat korxonalarining atrof-muhitga bo‘lgan e’tiborini yanada kuchaytirish, biznes strategiyalarini takomillashtirish, shu bilan birga hududlar darajasida barqaror rivojlanishni amalga oshirish darajasini tahlil qilish, “atrof-muhit, jamiyat, boshqaruv” (ESG) tamoyillariga mos holda faoliyat ko‘rsatishlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlarini tahliliy o‘rganish asosida olingan natijalarni umumlashtirib ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy samaradorlik – muhokama qilinadigan masalalarning har birida ijtimoiy samara alohida o‘rin egallaydi. Chunki ESG-tamoyillarining asosiy xususiyati ham ijtimoiy sohaga yuqori darajada e’tibor qaratilishidadir. Shu jihatdan ijtimoiy samarani iqtisodiy jihatdan baholash, bu yo‘nalishda mavjud amaliyotlarni ilmiy tahlil qilishning konseptual yondashuvlarini ishlab chiqishga, hududlarda va biznes sohasida izchil islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyatni rivojlantirish, aholining turmush darajasini yaxshilash, barqaror daromad manbalarini shakllantirish, tabiiy resurslar tejamkorligiga erishish asosida kelajak avlod uchun zahiralarini saqlab qolish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy samaradorlik - iqtisodiy faoliyatning faol ishtirokchilaridan biri ishlab chiqarish korxonalaridir, ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sezilarli darajada uglerod izi qoldiriladi. Shaffof va ekologik toza ma’lumotlarni taqdim etish atrof-

muhitni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya qilish uchun zarurdir. Iqtisodiy samaradorlik jihatidan mavzu doirasida muhokama qilinadigan har bir masala katta ahamiyatga ega. Birinchidan, sohada qonunchilik bazasini mustahkamlash; ikkinchidan, korxonalarda ESG tamoyillarini joriy yetishning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish; uchinchidan, hududlarning barqaror rivojlanishi uchun mavjud salohiyatini baholash va shu asosda sohalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatining vujudga kelishi, to'rtinchidan, korxona va tarmoqlarni rivojlantirishda "yashil" investitsiyalarni jalb qilish hamda ulardan samarali foydalanishga keng yo'l ochiladi.

Albatta bunday o'zgarishlar, texnologik taraqqiyotga hamohang ravishda, qo'shimcha imkoniyatlarni ochishga va rivojlanishning yangi strategiyalarini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Lekin shu bilan bir qatorda, iqtisodiyotni raqamlashtirish va bunday sharoitda biznesni rivojlantirish jarayonlarida, o'ziga xos muammolar va turli savollar ham yuzaga kelmoqda.

Bunday masalalarni o'rganib, uning yechimlarini topish uchun Toshkent menejment va iqtisodiyot institutining professor-o'qituvchilari tomonidan ham turli ilmiy tadqiqotlarni olib borish yo'lga qo'yilgan. Ularning tadqiqotlari natijalaridan - o'quv jarayonlarida, ta'lim sifatini oshirish maqsadlarida, keng foydalaniladi.

Bu o'z navbatida, institutda menejment, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohalarida tayyorlanadigan malakali mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham oshirishga hizmat qiladi.

Bundan tashqari, institutda innovatsion dasturlar va loyihalar orqali talabalarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, ularda raqamli iqtisodiyot va global biznes muhitida raqobatbardosh bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazishda hamkorlik qilayotgan O'zbekiston Ekologik Partiyasi Markaziy kengashiga, anjumanda ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, BMT ning UNDP loyihasi vakillariga, Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi Kozma Minin nomidagi Nijniy Novgorod davlat pedagogika universiteti, Umumrossiya davlat adliya universitetining (VGUYU) Shimoliy-Kavkaz instituti (filiali), Umumrossiya davlat adliya universitetining (VGUYU) Rostov instituti (filiali), Kazpotrebsoyuz Karaganda universiteti, Kyungdong Universiteti (Koreya Respublikasi), tashkilot va korxonalarining mutaxassislari, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarga o'z minnatdorchiligimizni izhor qilamiz.

Bugun sizlarning e'tiboringizga taqdim etiladigan taqdimotlar va fikrlar - bizni zamonaviy iqtisodiyotning yangi talablariga mos keladigan biznes modellarni yaratishga ilhomlantiradi.

Biz bu jarayonda, o'z tajribamizni almashish va birgalikda muammolarni hal qilish uchun yangi g'oyalarni kashf etishni maqsad qilamiz.

Umid qilamanki, anjumanimiz samarali va foydali bo'ladi.

Har biringizning ishtirokingiz va hissangiz bu jarayonda juda muhim.

Keling, birgalikda yangiliklarga ochiq bo'lib, innovatsion yechimlarni izlaylik!

Bugungi anjuman ishiga va unda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatlariga ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori

X. Axmedov

MUNDARIJA / ОГЛАВЛЕНИЕ

I SHO‘BA. IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH, ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH, IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH VA ULARNI YUMSHATISH, TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	11
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI XALQARO STANDARTLAR TIZIMIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI	
Abdulloyev A.J., N.K.Sharapova	11
АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ К ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВЫМ ПРЕДПРИЯТИЕМ И РЕАЛИЗАЦИИ ESG-КОНЦЕПЦИИ	
Кузнецов В.П., Назарова Е.Н.	23
ЭКОНОМИКО-ПРАВОВОЙ КОНТРОЛЬ КАК МЕТОД ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	
Алибеков Ш.И.	33
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТАРКИБИНИ БОЗОР КОНЪЮНКТУРАСИ ЎЗГАРИШИГА МОС ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	
Чариев К.А., Абдулазизов Ш.А.	37
BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL ENERGIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI	
Asamxodjayeva S.Sh.	48
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	
Meyliqulov Sh.X.	56
МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТЬЮ В КОМПАНИЯХ	
Киясов Б.Н.	60
РАЗРАБОТКА И ВНЕДРЕНИЕ СИСТЕМЫ КРІ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ СОТРУДНИКОВ НА ПРЕДПРИЯТИИ	
Ўқбар Айдын	66
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION XATARLARNI BOSHQARISH VA HUDUDIY “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	
Rashidov J.X.	72
“QURILISH SOHASI FAOLIYATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH”	
Alimov O.S.	82
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MAKROIQTISODIY BARQAROR RIVOJLANTIRISH TANHILI	
Nazirova S.X.	89
ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПРОИЗВОДСТВА ОДЕЖДЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	
Ахмедова Г.А.	99
ОПТИМИЗАЦИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ В НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ НА ПРИМЕРЕ КОМПАНИИ «ГРУППА ГАЗ»	
Лаврентьева Е.В., Пахомичева А.С.	107
БЕРЕЖЛИВОЕ ПРОИЗВОДСТВО КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ	
Лаврентьева Е.В., Султанова Л.Л.	113
ТЕНДЕНЦИИ И ПРОБЛЕМЫ РОССИЙСКИХ РЕГИОНОВ ПО ВНЕДРЕНИЮ ESG – СТАНДАРТОВ	
Набоков В.И., Некрасов К.В.	121
ЎЗБЕКИСТОНДА КИРУВЧИ ТУРИЗМНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРАТИ	
Рискулов Р.Б.	125
KORXONADA BREND EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI	
Sa’dulloyev H.I.	134

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI VA “RAQAMLI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR TAHLILI	
Sharipova Sh.B.	140
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	
Sharipov I.B.	147
РАЦИОНАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ТЕРРИТОРИИ ДЕХКАНСКИХ ХОЗЯЙСТВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ	
Ашуров А.Ф.	155
II SHO’BA. “YASHIL” TEXNOLOGIYALAR, SUN’IY INTELEKT VA ENG YAXSHI TEXNOLOGIYALAR (BAT) ASOSIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH	164
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYA QILISH YO’LLARI	
Yuldashev I.B.	164
ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ «УНИВЕРСИТЕТ 4.0»: ПОДГОТОВКА КАДРОВ ДЛЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ НИЗКОУГЛЕРОДНОГО ПЕРЕХОДА	
Кузнецова С.Н., Цыбуцинина И.Е., Фролов Ю.С., Горев Н.А.	168
SUN’IY INTELEKT VA REAL VAQT TIZIMLARI ASOSIDA HUDUDIY AVTOMOBIL YO’LLARI MUHANDISLIK INSHOATLARINI LOYIHALASH JARAYONINI MODELLASHTIRISH	
Norinov M.U., Zikrayev A.A.	177
REAL VAQT TIZIMLARI VA SUN’IY INTELEKT ASOSIDA EKOLOGIK MONITORINGNI AVTOMATLASHTIRISHNING ILMIY-ASOSIY YO’NALISHLARI	
Ergashev O.M.	186
ИКЛИМ ЎЗГАРИШЛАРИ ШАРОИТИДА АГРАР СОҲАНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА СУҒУРТА МЕХАНИЗМИНИНГ РОЛИ	
Вахобов А.Р.	195
ИНСОН ВА АТРОФ-МУҲИТ УЙҒУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ.	
Йўлдошев Н.Қ.	202
SUN’IY INTELEKTDAN ATROF-MUHITNI MUHOFAZALASHDA FOYDALANISH	
Nasriddinov I.X., Tulyaganov E.J.	209
O‘ZBEKISTONDA KO‘ZI OJIZ SHAXSLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK IMKONIYATLAR	
Isayev K.A., Qurbanov A.G‘.	215
ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИ ВА УЛАРГА ХИЗМАТ КЎРСАТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ЎРТАСИДА КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ	
Худайбердиев Ў.Э.	221
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TIZIMI RIVOJLANISHI SHAROITIDA BIZNESNI BOSHQARISH VA TASHKIL QILISH	
Kambarova Sh.M.	228
BARQAROR INVESTITSIYALAR VA ESG ME’ZONLARI: NAZARIY TAHLIL	
Maxmasobirova N.U.	235
“O‘ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARIDA ESG TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN BOSHQARUV MECHANIZMLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH”	
Rusatamov Z.X.	241
THE ROLE OF ESG PRINCIPLES IN ATTRACTING INSTITUTIONAL INVESTORS IN CORPORATE GOVERNANCE	
Sadikova M.A.	249
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANING O‘RNI	
Daminova O.M.	254
КОНФУЦИАНСКИЕ ИДЕИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА	
Нарзуллаева Г.С., Сайфуллаева М.И., Носирова Н.Д.	262
YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELEKTNING SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	
Yakubova U.A.	278

HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY–INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO‘NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI	
Qo‘chqorova M.U.	284
INKLYUZIV IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBALARI	
Qurbanov A.G‘.	291
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI	
Murtazaev O.O.	298
SANOAT KORXONALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI	
Ismatulloeva M.F.	304
TRANSPORT XIZMATLARINI IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI VA VAZIFALARI	
Karimova Sh.U.	311
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ АГРОБИЗНЕСА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ	
Адиллов Ш.Ш.	315
III SHO‘BA. ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA HUDUDLAR VA SANOAT KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI.....	325
“SANOAT-5.0” VA BARQARORLIK: ASOSIY TENDENSIYALAR VA MUAMMOLAR	
Xotamov I.S., Qudratxo‘jayev A.K.	325
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ КАК ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	
Мырзалиева Г.А., Байкенжеева Д.Б.	334
QISHLOQ XO‘JALIGIDA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH YO‘LLARI	
Asamxodjayeva Sh.Sh., Qodirov S.Q.	341
ESG TAMOIYILLARI HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATDA: BARQAROR RIVOJLANISHNING YANGI PARADIGMASI	
Zaynutdinov I.S.	348
ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA SANOAT CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASHNING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA‘SIRI	
Yusupov U.M.	353
AGLOMERATSIYALARNING “YASHIL” IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI	
Mardonov Sh.	362
O‘ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT SAMARADORLIGIGA EKO-MARKETING TA‘SIRINI TAHLIL QILISHDA SUN‘IY INTELLEKT VA MASHINAVIY O‘RGANISHGA ASOSLANGAN YANGI EKONOMETRIYA YONDASHUVI	
Usmonova Diyora Mahmud qizi	367
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATNI TUTGAN O‘RNI.....	379
Matchanova Ma‘rifat Ikramovna.....	379
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	
Meyliqulov Sh.X.	384
AVTOMOBILSOZLIKDA MAHALLIYLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHDA IKKINCHI DARAJALI YETKAZIB BERUVCHILARNING O‘RNI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	
Qobilov R.Sh.	388
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В КОМПАНИЯХ	
Аділ Ф.С.	392
ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ И МЕТОДОВ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ В КОМПАНИЯХ	
Жолдасова А.Б.	397
ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗРЕШЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫХ КОНФЛИКТОВ	
Кемпірәлі Е.Қ.	404
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ: ШАГИ К ИХ АВТОМАТИЗАЦИИ	
Пернебаев Е.Б.	409
ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ НА ПРЕДПРИЯТИИ	

Рахатова Ж.Н.	414
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO'NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI	
Musulmonova Sh., Hikmatov M.	422
SANOAT KORXONALARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING MILLIY VA XORIJIY TAJRIBASI	
Toxirov J.M.	426
GREEN CAR: QISHLOQ XO'JALIGIDA NAZORATNI YENGILLASHTIRUVCHI AQLLI ROBOT	
Qurbonov Sh.B.	434
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINING TAHLILI	
Baxromov A.B.	437
XALQARO AUDIT STANDARTLARIGA MUVOFIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVLARINI YTKAZISH MASALALARI	
Ahmadjonov A.K.	443
ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРНИ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ҚИЛИШ: ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАР, ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР ИНТЕГРАЦИЯСИ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	
Ашуров З.А.	448
IV SHO'BA. KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYALASH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	459
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	
Mamasoatov D.R.	459
РЕСТРУКТУРИЗАЦИЯ В СФЕРЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА	
Абдураимова Н.Р.	464
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI	
Suyunov Y.B.	479
АРАБСКАЯ РЕСПУБЛИКА ЕГИПЕТ НА ПУТИ К УСТОЙЧИВОМУ ЭКОНОМИЧЕСКОМУ РОСТУ	
Зиядуллаева Л.С.	487
THE IMPACT OF THE CHINA-KYRGYZSTAN-UZBEKISTAN RAILWAY ON UZBEKISTAN'S ECONOMIC DEVELOPMENT: MECHANISMS, EFFECTS, AND POLICY RESPONSES	
Ye Maoqing.	492
XORIJIY INNAVATSION INVESTITSİYALARNI JALB ETISH DOLZARBLIGI	
Tulyaganov E.J., Ubaydullayeva G.E.	502
QURG'OQCHIL MINTAQALARDA KICHIK AGROBIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	
Qulliyev O.A.	507
BANKLARNING MOLİYAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KAPITAL VA AKTIVLAR RENTABELLIGINING AHAMIYATI	
Alimjanova D.S.	516
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИЯМИ В БИЗНЕС-СФЕРЕ	
Рахымжанова А.А.	519
MAMLAKATIMIZDA EKSPORT JARAYONLARINI BARQARORLASHTIRISH OMILLARI	
Abdvaliyev Sh.X.	524
SANOAT KORXONALARIDA HR MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISH VA XODIMLARNI BOSHQARUV HOLATI TAHLILI	
Toshtemirov S.G'.	534
INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA MOTIVATSIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	
Abdufattoxova H.	539
AVTOMATLASHTIRILGAN BUYUMLARNI SARALOVCHI ROBOTLAR	
G'ulomov X.A.	545

APPLICATION OF ESG PRINCIPLES AS A WAY TO INCREASE COMPETITIVENESS IN THE MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES	
Kurbanov U.A., Kurbanova Sh.Y., Alimova D.T.	548
ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА.	
Фарходова Ш.Ш.	554
СОВРЕМЕННЫЕ НОВЕЙШИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭКОНОМИКЕ И БИЗНЕСЕ: РОЛЬ В СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РК	
Агабекова Ш.Н., Бокушева С., Байкенжеева Д.Б.	557
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕГИОНАХ КАЗАХСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	
Жартай Ж.М., Саттыбаева Д.М., Рахимова А.Н., Никкель Л.Д.	565
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR	
Vahangurov O.O.	571
O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH YO‘LLARI VA USTUVORLIKLARI	
Luqmanov B.M.	577
KAPITAL TANQISLIGI SHAROITIDA MOLIVAVIY RESURLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH	
Arziyev S.	585
V SHO‘BA. ESG STANDARTLARIGA MOS KELADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH, DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA XALQARO MOLIVA INSTITUTLARI	590
SANOAT KLASTERLARI – SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISHNING STRATEGİK YO‘NALISHI SIFATIDA	
Sobirov A.A.	590
АНАЛИЗ ВА СИНТЕЗ МЕТОДЛАРИНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ	
Дусмуратов Р.Д., Носирова Н.Ж.	597
ESG-ФАКТОРЫ В ПРИНЯТИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ	
Ким Л.Н., Елтаев Н.К.	606
КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ НА ПРИМЕРЕ НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ	
Ремизова И.В.	614
TIJORAT BANKLARIDA DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI MOLIVALASHNING ILG‘OR XORIY TAJRIBALARI	
Shodiyev Sh.S.	620
ВЛИЯНИЕ ЗЕЛЁНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ	
Усманова Ю.	623
YASHIL ENERGETIKA SOHASIDA INVESTITSIYALARNING ROLI	
Primov S.F.	632
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАМКАХ ЗЕЛЕННЫХ РАБОЧИХ МЕСТ	
Хувайдуллаева И.Х.	638
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH	
Primov S.F.	642
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИДА УЧРАЙДИГАН РИСКЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ	
Хусанбоев А.Ғ.	647
ВЛИЯНИЕ ПРИНЦИПОВ ESG НА РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕРВИЧНОГО ПУБЛИЧНОГО РАЗМЕЩЕНИЯ АКЦИЙ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ	
Сайдуллаев Ш.	653
РАНВАР КАДРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНСИЯЛАРИНИ РИВОJЛАНТИРИШДА RAQAMLI TECHNOLOGIYALARNING O‘RNI	
Olimov S.A.	660
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHİK TADBIRKORLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI	
Kurbanova Sh.Y., Yusupov A.A.	667
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ	

Koptaeva G.II., Bekebaeva M.O.	672
HUDUDLAR TASHQI IQTISODIY STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	
Toshboyev M.M.	680
QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING AHAMIYATI	
Yuldasheva D.K.	689
O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIIY AHAMIYATI	
Mamatov M.N.	699
RAQAMLI-ELEKTRON PULLAR VA KRIPTOVALYUTALAR FARQLARI	
Matchanov T.M., Matchanova M.I.	703
AXBOROT TIZIMLARI XUSUSIYATLARI	
Norinov M.U., Abdulxamid A.I., Oripov O.I., Madaminov F.R.	709
CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH SANOATI VA ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH YO'LLARI	
Tursunqulov Sh.R.	715
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQUARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH MEXANIZMLARI	
Abduraxmanova Z.T., Rustamova M.M.	722
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SANOATDA EKOLOGIK SAMARADORLIKNI OSHIRISH	
Hasanov H.X.	727
SHADOW ECONOMY EXPOSED: THE HIDDEN FORCES SHAPING ECONOMY.	
Arziev Sh.R.	735
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI	
Axmedova D.B.	741

- ilmiy-tadqiqot markazlari va texnoparklar bilan hamkorlikda sarmoya loyihalarini rivojlantirish.

- xalqaro standartlarga mos huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish.
- investorlar uchun bir darcha (One Stop Shop) xizmatlarini raqamli platformaga o'tkazish.

- xorijiy investorlar uchun qulay huquqiy va iqtisodiy muhit yaratish;
- innovatsion loyihalarni tanlov asosida moliyalashtirish;
- iqtisodiy mintaqalarda mahalliy resurslardan samarali foydalanish;
- ilmiy kadrlar tayyorlash va fan sohasiga investitsiyani oshirish;
- xorijiy investitsiyalarni boshqarish tizimini raqamlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – 2020- yil 25- dekabr.

2. "Xorijiy investorlarning huquqlarini himoya qilish va kafolatlar to'g'risida"gi Qonun. - 1997- yil 30- aprel.

3. Hoshimov I.M., Safarov SH.X. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosatini takomillashtirish masalalari. – T.: Iqtisodiyot va ta'lim, 2023.

4. Abdurahmonov Q.N., Rahimov A.A. Investitsiya faoliyati va uning moliyaviy mexanizmi. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2022.

5. Nazarov Sh.R. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hududiy siyosatning roli. // "Iqtisodiy tahlil" jurnali, №4, 2023.

6. Nurmatov A.B. Innovatsion jarayonlarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. // "Iqtisodiyot va ta'lim", №2, 2024.

QURG'OQCHIL MINTAQALARDA KICHIK AGROBIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li
Buxoro davlat universiteti
iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznes subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, agrotexnologiyalarni modernizatsiya qilish, kooperatsiya va marketing tizimlarini rivojlantirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** agrobiznes, samaradorlik, qurg'oqchil hudud, suv resurslari, innovatsiya.*

***Абстракт.** В данной статье рассматриваются пути повышения эффективности деятельности субъектов малого агробизнеса в засушливых регионах. Особое внимание уделяется рациональному использованию водных ресурсов, модернизации агротехнологий, развитию кооперации и маркетинговых систем.*

***Ключевые слова:** агробизнес, эффективность, засушливые регионы, водные ресурсы, инновации.*

Abstract. *This article analyzes the ways to improve the efficiency of small agribusiness entities in arid regions. Special attention is given to the rational use of water resources, modernization of agro-technologies, development of cooperation and marketing systems.*

Keywords: *agribusiness, efficiency, arid regions, water resources, innovation.*

Kirish

Qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznes subyektlari faoliyatini samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Respublikamiz hududining katta qismi tabiiy-iqlimiy sharoitlari jihatidan qurg'oqchil mintaqalarga mansub bo'lib, bu hududlarda qishloq xo'jaligi faoliyatini samarali tashkil etish qator murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bunday hududlarda suv resurslarining cheklanganligi, yerlarning sho'rlanishi, ekologik muammolar va iqlim o'zgarishlari kichik agrobiznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida agrobiznes sohasi nafaqat ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, balki eksport salohiyatini oshirish, aholining bandligini ta'minlash va hududiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Kichik agrobiznes subyektlari – fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va oilaviy tadbirkorlik shaklidagi ishlab chiqaruvchilar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznes samaradorligini oshirish masalasini ilmiy asosda o'rganish quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Oziq-ovqat xavfsizligi: Aholi sonining o'sishi oziq-ovqatga bo'lgan talabni oshirmoqda. Qurg'oqchil hududlarda samarali agrobiznesni rivojlantirish ushbu talabni qondirishning muhim shartidir.

2. Iqlim o'zgarishi: Global iqlim o'zgarishlari natijasida suv resurslari kamaymoqda, tuproq degradatsiyasi kuchaymoqda, bu esa yangi agroteknologiyalarni joriy etishni talab qiladi.

3. Hududiy tafovutlar: Respublikamizning turli hududlarida agrobiznes samaradorligi sezilarli farqlarga ega bo'lib, bu ilmiy asoslangan hududiy strategiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

4. Xorijiy tajriba: Rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasi qurg'oqchil hududlarda samaradorlikni oshirishda qo'llanishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznes subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularning yechimiga doir ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznesning ahamiyatini ilmiy asosda yoritish;
- samaradorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash;
- hududiy tahlillar asosida statistik ma'lumotlarni umumlashtirish;
- xorijiy tajribalarni o'rganish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish;
- samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznes subyektlari faoliyatini baholashda samaradorlik indeksi ishlab chiqildi, suv resurslarini boshqarish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorlikka ta'siri ilmiy asosda asoslandi hamda xorijiy tajriba O'zbekiston sharoitiga moslashtirildi.

1-bo'lim: Qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznesning o'rni

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25 foizga yaqinini ta'minlaydi. Bu soha aholining oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlash, bandlikni oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, kichik agrobiznes subyektlari – fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va oilaviy tadbirkorlik shaklidagi subyektlar ishlab chiqarishning asosiy qismini tashkil etadi.

1.1. Kichik agrobiznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Kichik agrobiznes subyektlari nafaqat ishlab chiqarishni tashkil etadi, balki qishloq joylarda:

- Aholi bandligini oshiradi;
- Daromad manbai sifatida xizmat qiladi;
- Ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi;
- Mahalliy bozorni tezkor ta'minlash imkonini beradi.

Ularning faoliyati orqali aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi tez va samarali qondiriladi. Misol uchun, O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qariyb 65–70 foizi kichik subyektlar hissasiga to'g'ri keladi.

1.2. Qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznesning o'ziga xosligi

Qurg'oqchil hududlar – Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy va Qoraqalpog'iston Respublikasi – tabiiy sharoitlari jihatidan murakkab hisoblanadi. Bu hududlarda kichik agrobiznesning faoliyat yuritishi quyidagi omillar bilan tavsiflanadi:

- Suv resurslarining taqchilligi – Amudaryo va Zarafshon havzalaridan keluvchi suv miqdori kamaymoqda;
- Yerlarning sho'rlanishi – tuproqning unumdorligi keskin pasaymoqda;
- Iqlim o'zgarishlari – haroratning keskin o'zgarishi hosildorlikka salbiy ta'sir qilmoqda;

- Infratuzilma cheklanganlig – logistika, saqlash va qayta ishlash tizimlari to‘liq rivojlanmagan.

Shu bois kichik agrobiznes subyektlari qurg‘oqchil hududlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun an‘anaviy yondashuvlardan tashqari innovatsion texnologiyalardan ham foydalanishi zarur.

1.3. Kichik agrobiznesning hududiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi

Kichik agrobiznes subyektlari hududiy rivojlanishda quyidagi jihatlar orqali ahamiyatlidir:

- Mahalliy byudjet daromadlarini oshiradi – soliqlar va yig‘imlar hisobiga hududiy moliyaviy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

- Qishloq infratuzilmasini rivojlantiradi – ishlab chiqarish jarayonida transport, energetika va sug‘orish tarmoqlariga talab ortadi.

- Aholi bandligini ta‘minlaydi – ayniqsa, ayollar va yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratiladi.

- Mahsulot diversifikatsiyasini ta‘minlaydi – hududiy iqlim sharoitiga mos ekinlar yetishtiriladi.

1.4. Statistik ko‘rsatkichlar

Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda qurg‘oqchil hududlardagi kichik agrobiznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 28 trillion so‘mni tashkil qilgan. Shundan:

- Qashqadaryo viloyatida – 8,1 trillion so‘m;
- Surxondaryo viloyatida – 6,5 trillion so‘m;
- Buxoro viloyatida – 5,3 trillion so‘m;
- Navoiy viloyatida – 3,8 trillion so‘m;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 4,3 trillion so‘m.

Bu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, kichik agrobiznes subyektlari qurg‘oqchil hududlarda iqtisodiy o‘shishning muhim drayveri sifatida shakllanmoqda.

2-bo‘lim: Samaradorlikka ta‘sir etuvchi omillar

Qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Tabiiy-iqlimiy omillar – suv resurslari taqchilligi, tuproq unumdorligi, harorat o‘zgaruvchanligi.

2. Iqtisodiy omillar – moliyalashtirish manbalari, kreditlar, subsidiya va soliq imtiyozlari.

3. Texnologik omillar – suv tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug‘orish, issiqxonalar.

4. Ijtimoiy omillar – ishchi kuchi salohiyati, migratsiya jarayonlari, mahalliy aholining bilim va ko‘nikmalari.

5. Institutsional omillar – davlat siyosati, huquqiy baza va boshqaruv tizimlari.

1-jadval

Qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznes samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Omillar guruhi	Ijobiy ta'sirlar	Salbiy ta'sirlar
Tabiiy-iqlimiy	Ba'zi hududlarda quyosh energiyasi mo'l	Suv tanqisligi, sho'rlanish
Iqtisodiy	Mikrokreditlar, subsidiyalar	Moliyaviy resurslarning yetishmasligi
Texnologik	Innovatsion texnologiyalar samaradorlikni oshiradi	Yangi texnologiyalarning yuqori narxi
Ijtimoiy	Mahalliy ishchi kuchi mavjudligi	Migratsiya oqibatida kadrlar yetishmasligi
Institutsional	Davlat siyosati, imtiyozlar	Huquqiy-me'yoriy bazadagi bo'shliqlar

Diagramma 1. Samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar ulushi (foizda)

Tabiiy-iqlimiy	30%
Iqtisodiy	20%
Texnologik	25%
Ijtimoiy	10%
Institutsional	15%

Mazkur diagrammadan ko'rinadiki, tabiiy-iqlimiy omillar (30%) va texnologik omillar (25%) kichik agrobiznes samaradorligiga eng katta ta'sir ko'rsatmoqda.

3-bo'lim: Amaliy tahlillar va jadvallar

O'zbekistonning qurg'oqchil hududlarida kichik agrobiznes subyektlari faoliyatini samaradorligini tahlil qilish uchun Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy va Qoraqalpog'iston Respublikasining 2020–2023 yillardagi statistik ma'lumotlari o'rganildi.

3.1. Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi

2- jadval

Qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznes mahsulotlari hajmi (trln. so'm)

Hudud	2020	2021	2022	2023	O'sish sur'ati (%)
Qashqadaryo	6,9	7,5	8,1	8,9	129%
Surxondaryo	5,4	5,9	6,5	7,2	133%
Buxoro	4,7	4,9	5,3	5,9	125%
Navoiy	3,1	3,4	3,8	4,1	132%
Qoraqalpog'iston	3,6	3,9	4,3	4,7	131%
Jami	23,7	25,6	28	30,8	130%

2-diagramma. Hududlar kesimida mahsulot hajmining dinamikasi (2020–2023)

Qashqadaryo	8.9
Surxondaryo	7.2
Buxoro	5.9
Navoiy	4.1
Qoraqalpog‘iston	4.7

(trln. so‘m)

Diagrammadan ko‘rinadiki, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari kichik agrobiznes mahsulotlari hajmi bo‘yicha yetakchi hisoblanadi.

3.2. Samaradorlik ko‘rsatkichlari**3-jadval**

**Qurg‘oqchil hududlarda kichik agrobiznes samaradorligi (2023 yil,
o‘rtacha ko‘rsatkichlar)**

Hudud	Hosildorlik (s/ga)	Suv sarfi (m ³ /ga)	Sof foyda (mlrd so‘m)	1 ishchiga to‘g‘ri keladigan daromad (mln so‘m)
Qashqadaryo	47	4,8	1,25	36
Surxondaryo	52	4,5	1,18	34
Buxoro	41	5,1	870	29
Navoiy	38	5,4	710	27
Qoraqalpog‘iston	36	5,6	650	25

3-diagramma. Samaradorlik ko‘rsatkichlari taqqoslanishi (foyda, mlrd so‘m)

Qashqadaryo	1250
Surxondaryo	1180
Buxoro	870
Navoiy	710
Qoraqalpog‘iston	650

Diagrammadan ko‘rinadiki, Qashqadaryo viloyati eng yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega.

Xulosalar

Hududlar o‘rtasida samaradorlikda keskin farqlar mavjud.

Suv sarfi ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lsada, hosildorlik va sof foyda darajasi har doim ham yuqori emas.

Suvni tejovchi texnologiyalar joriy etilgan joylarda foyda yuqoriligi kuzatilmoqda.

Jahon tajribasi va O‘zbekiston uchun imkoniyatlar**

Qurg‘oqchil hududlarda agrobiznesni rivojlantirish masalasi dunyoning ko‘plab mamlakatlarida dolzarbdir. Isroil, AQSh, Turkiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar tajribasi O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular suv

resurslarini tejash, hosildorlikni oshirish va kichik fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlashning ilg‘or mexanizmlarini ishlab chiqqan.

4.1. Jahon tajribasining asosiy yo‘nalishlari

4- jadval

Qurg‘oqchil hududlarda agrobiznes samaradorligini oshirish bo‘yicha jahon tajribasi

Mamlakat	Asosiy choralar	Natija
Isroil	Tomchilatib sug‘orish, smart-agro tizimi	Hosildorlik 1,5 baravar oshdi, suv sarfi 40% ga qisqardi
AQSH	Fermer kooperativlari, subsidiyalar	Fermerlar xarajatlari 25% ga kamaydi
Turkiya	Davlat-xususiy sheriklik asosida issiqxonalar	Eksport hajmi 2 baravar oshdi
Hindiston	Mikrokredit va mikrosug‘urta tizimlari	Kichik fermerlar daromadi 30% ga oshdi
Ispaniya	Yerlarni diversifikatsiya qilish, vinochilik	Qurg‘oqchil hududlarda yuqori qo‘shimcha qiymat yaratildi

O‘zbekiston uchun imkoniyatlar

Mazkur tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish quyidagi natijalarni berishi mumkin:

- Isroil tajribasi asosida tomchilatib sug‘orish tizimini kengaytirish suv sarfini 35–40% ga kamaytirishi mumkin.
- AQSh tajribasi bo‘yicha fermer kooperatsiyalarini rivojlantirish xarajatlarni kamaytirib, eksport imkoniyatlarini oshiradi.
- Turkiya tajribasi asosida issiqxona xo‘jaliklarini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulot yetishtirish imkonini beradi.
- Hindiston tajribasi bo‘yicha mikrokredit va sug‘urta tizimini rivojlantirish kichik fermerlarning moliyaviy barqarorligini oshiradi.

4-diagramma. Jahon tajribasi asosida O‘zbekiston uchun kutilayotgan natijalar

Tomchilatib sug‘orish		- Suv sarfi -40%
Kooperatsiya		- Xarajat -25%
Issiqxonalar		- Eksport +200%
Mikrokredit		- Daromad +30%
Diversifikatsiya		- Qo‘shimcha qiymat yuqori

Xulosalar

O‘zbekiston uchun eng muhim yo‘nalishlar – suvni tejash texnologiyalari, fermer kooperatsiyasi va issiqxonalarni rivojlantirishdir.

Mikrokredit va sug'urta tizimi kichik agrobiznes subyektlari barqarorligini ta'minlaydi.

Qurg'oqchil hududlarda jahon tajribasidan foydalanish samaradorlikni 25–40% ga oshirishi mumkin.

Taklif va tavsiyalar

Qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznes samaradorligini oshirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar ishlab chiqildi.

Suv resurslaridan samarali foydalanish

Tomchilatib sug'orish va yomg'irlatib sug'orish tizimlarini keng joriy qilish.

Qayta foydalaniladigan suv manbalarini (drenaj suvlarini tozalash) yo'lga qo'yish.

Suv taqsimoti monitoringini raqamlashtirish.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash

Fermer xo'jaliklariga mikrokreditlar va subsidiyalar berish.

Mikrosug'urta tizimini joriy qilish.

Agrobiznesni rivojlantirish uchun imtiyozli soliq siyosati.

Texnologik modernizatsiya

- Issiqxona xo'jaliklarini kengaytirish.

- Zamonaviy texnika va dronlardan foydalanish.

- Qishloq xo'jaligi raqamlashtirilgan monitoring tizimlarini yaratish.

Infratuzilmani rivojlantirish

- Mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash zavodlarini tashkil etish.

- Logistika markazlarini yaratish.

- Qishloq infratuzilmasini (yo'l, energetika, internet) yaxshilash.

Tavsiyalarni umumlashtiruvchi jadval

5-jadval

Kichik agrobiznes samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar

Yo'nalish	Asosiy chora-tadbirlar	Kutilayotgan natija
Suvni tejash	Tomchilatib sug'orish, monitoring	Suv sarfi -40%, hosildorlik +20%
Moliyaviy tizim	Mikrokredit, mikrosug'urta	Daromad barqarorligi, risklar kamayishi
Texnologiyalar	Issiqxona, dron, raqamlashtirish	Samaradorlik +25–30%
Infratuzilma	Logistika, qayta ishlash zavodlari	Eksport hajmi oshishi, yangi ish o'rinlari
Kadrlar tayyorlash	Qishloq xo'jaligi malaka markazlari	Yangi bilim va ko'nikmalarga ega ishchi kuchi

Yakuniy xulosa va tavsiyalar

1. Suvni tejash texnologiyalarini kengaytirish eng muhim ustuvor yo'nalishdir.

2. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari (mikrokredit, sug'urta) kichik fermerlarning barqarorligini ta'minlaydi.

6-diagramma – Takliflarning samaradorlikka ta'siri

Suvni tejash		+20% samaradorlik
Moliyaviy tizim		+15%
Texnologiyalar		+25%
Infratuzilma		+18%
Kadrlar tayyorlash		+10%

3. Raqamlashtirish va yangi texnologiyalar samaradorlikni sezilarli oshiradi.

4. Infratuzilma rivoji mahsulot tannarxini kamaytiradi va eksportni oshiradi.

5. Kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish kichik agrobiznes subyektlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qurg'oqchil hududlarda kichik agrobiznes subyektlarining samaradorligi bir qator tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va institutsional omillarga bevosita bog'liqdir.

Hududlar bo'yicha tahlillar natijasida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari eng yuqori samaradorlikka ega bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyati nisbatan past ko'rsatkichlarga ega ekani aniqlandi.

Jahon tajribasi (Isroil, AQSh, Turkiya, Hindiston) shuni ko'rsatadiki, suvni tejash, kooperatsiya va mikrokredit tizimi kichik agrobiznes samaradorligini 25–40% ga oshirish imkonini beradi.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, samaradorlikka eng katta ta'sirni suv resurslarini boshqarish va zamonaviy texnologiyalar joriy etish ko'rsatmoqda.

Umumiy tavsiyalar

1. Suv resurslari bo'yicha

- Tomchilatib sug'orish va qayta foydalaniladigan suv texnologiyalarini joriy qilish.
- Suv monitoringini raqamlashtirish.

2. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha

- Mikrokredit va mikrosug'urta tizimini kengaytirish.
- Fermer xo'jaliklari uchun soliq imtiyozlari berish.

3. Texnologik modernizatsiya bo'yicha

- Issiqxonalar, dron va agrotehnika joriy etish.
- Smart-agro va IoT asosida monitoring tizimlarini yaratish.

4. Infratuzilma bo'yicha

- Logistika va qayta ishlash zavodlarini ko'paytirish.
- Qishloq hududlarida transport va energetika tarmoqlarini rivojlantirish.

5. Kadrlar tayyorlash bo'yicha

- Qishloq xo'jaligi bo'yicha malaka oshirish markazlarini yaratish.
- Yoshlarni innovatsion agrobiznes loyihalariga jalb qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari (2020–2023).
3. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (2020–2023).
4. FAO (Food and Agriculture Organization) – Annual Agricultural Reports, 2022.
5. Isroil Agriculture Innovation Center – Smart Irrigation Practices, 2021.
6. World Bank. “Agricultural Productivity in Drylands” – Washington D.C., 2022.
7. Hindiston Qishloq xo'jaligi vazirligi – Microcredit and Farmers Support, 2020.
8. Turkiya Agriculture Development Agency – Greenhouse Projects, 2021.
9. Academic Journal of Agricultural Economics, №3(78), 2022.
10. Abdulloyev A.J., Qulliyev O.A. – “Agrobiznes samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar roli”, Toshkent, 2023.

BANKLARNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KAPITAL VA AKTIVLAR RENTABELLIGINING AHAMIYATI

Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna

Toshkent texnologiya, menejment va
kommunikatsiya instituti kafedra assistenti,

E-mail: dilrabo.alimjanova@icloud.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini ta'minlashning ahamiyati va roli hamda unga ta'sir etuvchi omillar, jumladan kapital va aktivlardan to'g'ri foydalanish hamda ularning samaradorlikka ta'siriga doir nazariy qarashlar tahlil qilinadi. Shunigdek, Xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotchi olimlar tomonidan moliyaviy barqarorlik va banklar samaradorligiga doir ilgari surilgan nazariy va empirik tadqiqotlar keltirilib, xulosa va takliflar shakllantirilgan.*

***Kalit so'zlar:** banklar samaradorligi, kapital yetarliligi, likvidlilik, aktivlar samaradorligi, aktivlar sifati, kapital va aktivlar rentabelligi, aktivlar samaradorligi*

***Аннотация.** В статье анализируются значение и роль обеспечения финансовой эффективности коммерческих банков, а также факторы, влияющие на неё, включая рациональное использование капитала и активов и их влияние на эффективность. Представлены теоретические и эмпирические исследования финансовой устойчивости и эффективности банков, проведенные зарубежными и отечественными исследователями, а также сформулированы выводы и предложения.*

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2- TOPLAM

2- MAXSUS SON /2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114